



O'ZKIMYOSANOAT
AKSIYADORLIK JAMIYATI

2021-yil 16-noyabr

“O`zkiyosanoat” aksiyadorlik jamiyati korxonalarida tayyor mahsulotlarni hisobga olish va sotishni, RFID texnologiyasi asosida markirovkalash orqali, avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish va joriy etishga tanlov e`lon qiladi

1. Tanlov mavzusi:

“O`zkiyosanoat” AJ korxonalarida tayyor mahsulotlarni markirovkalash bo`yicha avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish va joriy etish.

2. Ishlar/xizmatlarning mazmuni:

Axborot tizimini ishlab chiqish, amalga oshirish, takomillashtirish va kafolatli qo`llab-quvvatlash. Axborot tizimi texnik shartlarning talablariga javob berishi kerak.

“O`zkiyosanoat” AJning barcha korxonalarida tayyor mahsulotlarni markirovkalash, mahsulotlarni jo`natish va tayyor mahsulotlar harakati, omborlar, tayyor mahsulotlarni savdosi, korporativ hisoboti va ma`lumotlarni umumlashtirishni boshqarish uchun modullarining apparat va dasturiy qismlarini joriy etish zarur.

3. Tanlov takliflarini yuborish tartibi to`g`risida ma`lumot:

Takliflarni qabul qilish ikki bosqichdan iborat bo'ladi: 1-bosqich texnik takliflarni qabul qilish; 2-bosqich tijorat takliflarini qabul qilish.

Texnik takliflarni 16.11.2021 yil sanasidan 23.12.2021 yil sanasigacha qabul qilinadi.

Taklif tashkilotning rahbari tomonidan tasdiqlangan rasmiy blankida asl muhri bilan rasmiylashtirilgan bo`lshi kerak.

Takliflarni taqdim etish joyi: 100011, Toshkent shahri, Navoiy ko`chasi, 38-uy. (09.00 dan 17.00 gacha, dushanba-juma kunlari). Tel. raqami: (78) 140-74-77.

4. Kompaniyaga qo`yilgan talablar:

- Tashkilot yuqorida ko'rsatilgan xizmatlarni amalga oshirish uchun barcha zarur litsenziyalar va

sertifikatlarga ega bo'lish;

- Kamida 3 ta mijozlardan ijobiy tavsiyanomalar taqdim etish;
- Kamida 3 yil ushbu xizmatlar bozorida ish tajribasiga ega bo'lish;
- Shu kabi ishlanmalar va ularning tadbiriq etilganligi haqida ma'lumot berish;
- Yuridik va buxgalteriya hujjatlarini berish va olish huquqiga ega bo'lgan Toshkent shahridagi ofisning mavjudligi;
- Bankrotlik va sud jarayonlari bosqichida emasligi.

5. Kafolat talablari:

- Xizmatlarni o'z vaqtida to'g'ri bajarish kafolati;
- Ish qabul qilinganidan so'ng kamida 12 oy davomida xizmat ko'rsatish kafolati.

6. Eng yaxshi taklifni aniqlashda buyurtmachi tomonidan foydalaniladigan mezonlar:

- Funktsional imkoniyatlar;
- Sifat;
- Qiymati;
- Xizmat ko'rsatish muddatlari;
- Xizmat ko'rsatish kafolati.

[Texnik vazifani yuklab olish](#)

source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/tender/markirovka>